



**PRESS-RELIZ**

**2022-yil 15-sentabr**

**“NKMK” AJda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi, yutuq va istiqboldagi rejalariga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida**

**2022-yil 15-sentabr kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi, yutuq va istiqboldagi rejalar” mavzusida matbuot anjumani o‘tkazildi.**

Matbuot anjumanida “NKMK” AJ Mehnat muhofazasi bo‘yicha direktor Alisher Tursunov, Atrof-muhitni muhofazasi bo‘limi boshlig‘i Shohida Ortiqova, Matbuot xizmati rahbar-xodimlari, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirok etishdi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida bugungi kunda har bir yo‘nalish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ana shunday muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri – korxonada ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, amaliy natijalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Jumladan, kombinatda atmosfera havosini muhofaza qilish, suv-yer resurslarini muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish va bioxilma-xillikni muhofaza qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Misol uchun, kombinatning barcha ishlab chiqarish korxonalariga 95-99 foiz ifloslantiruvchi moddalarni ushlab qoluvchi zamonaviy filtrlar, chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatilgani atmosfera ifloslanishining oldini olishga xizmat qilmoqda. Birgina, 3-gidrometallurgiya zavodi maydalash sexiga tozalash samaradorligi yuqori bo‘lgan 3 ta qo‘shimcha chang-gaz qurilmalari qurilgani 62 tonna zararli chang-gazlarni ushlab qolish imkonini berdi. Buni har bir korxonada misolida ham ko‘rish mumkin.

Ayni paytda 2, 4, 5-gidrometallurgiya zavodlari, “Marjonbuloq” oltin ajratish fabrikasi chiqindi ombori, shuningdek, barcha shaxta, karyerlarda ishlatilgan oqova suvlari tozalash inshootlarida qayta tozalanib, ishlab chiqarishda foydalanmoqda. Misol uchun, 2021-yilda 100 mln kubmetr umumiy texnik suvning 18 foizi yoki 18,2 mln kubmetr qayta ishlandi. Bu yil esa 134,3 mln kubmetr texnik suvni qayta ishlash hajmini 34 foiz yoki 46 mln kubmetrga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Kombinatda energiyani iqtisod qilish maqsadida, bo‘linmalar issiq suv ta‘minoti uchun 260 ta gelio quyosh suv isitish uskunalari o‘rnatildi va bu o‘zining yaxshi samaralarini bermoqda.

2020-yilda 977 gektar, 2021 yilda 307,9 gektar yer rekultivatsiya qilindi. Umuman olganda, kombinat faoliyati davomida qariyb 37 ming gektar yer rekultivatsiya qilingan.

Shimoliy va Janubiy kon boshqarmalarida yaroqsiz avtomobil shinalarini piroliz yo‘li bilan qayta ishlash qurilmalari joriy etilgan. Yaroqsiz shinalarni qayta ishlash natijasida piroliz yoqilg‘isi, metallolom hamda texnik uglerod ikkilamchi mahsulot olinmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida so‘nggi yillarda 122,7 gektar maydonga 168,2 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. 2020 va 2022-yillarda ekologik aksiya doirasida esa kombinat yoshlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida Orol dengizining qurigan qismida 120 ming tupdan ortiq saksovul ko‘chatlari o‘tqazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi “Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablar va atrof muhitni muhofazasi me‘yorlarini xalkaro standartlar asosida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ayni paytda bu boradagi ishlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Hukumat qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, kombinatning tegishli buyrug‘i va 19 bandedan iborat dasturi qabul qilingan. Hozirda unda belgilangan vazifalar izchil davom ettirilmoqda.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

**Murojaat uchun ma‘lumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-73

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

**[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/nkmkofficial](https://www.fb.com/nkmkofficial), [instagram.com/nkmk.official](https://instagram.com/nkmk.official), [www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial)**